

## Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025- yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-may holatiga ko'ra viloyatimizda 4 704 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1 136 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,2 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 705 tasi (15,0 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 388 tasi (8,3 %) kiyim ishlab chiqarishga, 443 tasi (9,4 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 344 tasi (7,3 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1-may holatiga ko'ra





## II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13 977,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 103,3 % ni tashkil etdi.

|                           | Hajmi,<br>mlrd so'm | Fizik hajm<br>indeksi, % da |
|---------------------------|---------------------|-----------------------------|
| <b>Samarqand viloyati</b> | <b>13 977,1</b>     | <b>103,3</b>                |
| Samarqand sh              | 5 019,6             | 100,9                       |
| Kattaqo'rg'on sh          | 279,1               | 108,6                       |
| tumanlar:                 |                     |                             |
| Oqdaryo                   | 313,2               | 115,7                       |
| Bulung'ur                 | 273,3               | 99,1                        |
| Jomboy                    | 1 272,1             | 100,2                       |
| Ishtixon                  | 367,9               | 101,4                       |
| Kattaqo'rg'on             | 699,6               | 110,7                       |
| Qo'shrabot                | 64,6                | 109,7                       |
| Narpay                    | 342,1               | 109,8                       |
| Payariq                   | 118,7               | 54,9                        |
| Pastdarg'om               | 537,7               | 114,9                       |
| Paxtachi                  | 185,4               | 62,2                        |
| Samarqand                 | 831,2               | 107,3                       |
| Nurobod                   | 156,7               | 106,9                       |
| Urgut                     | 1 183,1             | 103,7                       |
| Toyloq                    | 912,1               | 110,4                       |

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (8 408,7 ming so'm), Jomboy tumanida (6 537,1 ming so'm), Toyloq tumanida (4 021,8 ming so'm), Samarqand tumanida (2 977,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 245,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 101,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, Kattaqo'rg'on shahrida (107,1 %), Oqdaryo tumanida (113,1 %), Pastdarg'om tumanida (112,4 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**  
yanvar-aprel oylarida



### **Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2025-yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 13 492,4 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,5 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 70,9 mlrd so'm (0,5 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 311,2 mlrd so'm (2,2 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 102,5 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,**  
**jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi**  
2025-yilning yanvar-aprel oylarida



### III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 58 357,6 tonna chaqiq tosh (2024 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 37,9 % ga kamaygan), 8 586,2 tonna ip kalava (15,1 % ga kamaygan), 4 911,9 ming litr pivo mahsulotlari (2,3 % ga kamaygan) hamda 9 704,2 ming metr kvadrat gilam va gilam maxsulotlari (6,1 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

| Sanoat mahsulotlari          | 2023-yil yanvar-aprel* | 2024-yil yanvar-aprel* | 2025-yil yanvar-aprel |
|------------------------------|------------------------|------------------------|-----------------------|
| Avtobus, dona                | 257                    | 228                    | 125                   |
| Yuk avtomobillari, dona      | 717                    | 956                    | 1081                  |
| Portlandsement, ming t       | -                      | 760,0                  | 773,7                 |
| Konyak spirti, ming litr     | 134,3                  | 55,0                   | 27,0                  |
| Paxta tolasi, ming t         | 22,9                   | 22,6                   | 15,2                  |
| Gilam va gilam maxsulotlari, | 8 267,6                | 9 142,7                | 9 704,2               |

ming m kv

|                                          |          |          |          |
|------------------------------------------|----------|----------|----------|
| O'simlik yog'i<br>(tozalangan),t         | 11 504,0 | 18 225,0 | 24 004,0 |
| Kunjara va qattiq<br>chiqindilar, ming t | 29,7     | 36,9     | 43,6     |

*\*2023-2024 yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy  
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 41,1 % (2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,0 % (2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,2 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2024-yilning yanvar-aprel oylarida 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 11,4 % (13,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 19,8 % (21,3 %), quyi texnologiyali 64,7 % (61,3 %)ni tashkil etgan.





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash  
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab  
chiqarish hajmi**

2025-yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 154,9 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari                                                       | 2023-yil yanvar-aprel* | 2024-yil yanvar-aprel* | 2025-yil yanvar-aprel |
|---------------------------------------------------------------------------|------------------------|------------------------|-----------------------|
| Jami ishlab chiqarilgan elektr energiya, mln kv.t.s                       | 32,3                   | 48,4                   | 61,5                  |
| <i>shundan:</i>                                                           |                        |                        |                       |
| yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)                | 32,3                   | 48,4                   | 61,5                  |
| kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan) | -                      | -                      | -                     |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal                                            | 5,3                    | -                      | -                     |

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish hajmi**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 18,9 % ga ko'payish, Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlarda 11,7 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, plastmassa chiqindilari yig'ish bo'yicha xizmatlarda 5,3 % ga ko'payish kuzatildi.


| Sanoat mahsulotlari                                                                  | 2023-yil yanvar-aprel* | 2024-yil yanvar-aprel* | 2025-yil yanvar-aprel |
|--------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|------------------------|-----------------------|
| Suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm | 32 367,2               | 38 700,1               | 48 143,5              |
| Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlar, mln so'm                        | 14 573,0               | 21 101,2               | 23 563,2              |

|                                                                   |          |          |          |
|-------------------------------------------------------------------|----------|----------|----------|
| Xavfli bo'lmagan<br>chiqindilarni yig'ish<br>xizmatlari, mln so'm | 10 254,0 | 20 507,6 | 23 810,7 |
| Plastmassa chiqindilari, t                                        | 913,0    | 1031,7   | 1086,2   |

*\*2023-2024-yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

#### **IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 703,6 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,0 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-aprel oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 48,2 % ni tashkil etgan.



#### **V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

##### **Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)**

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan



holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif**

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### **Metama'lumot uchun havola:**

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>  
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
T. Alimov  
66 235-06-80 (3011)

**Manzil:**  
Samarqand sh  
U.Tursunov-82 uy

---